





“KELISHILDI”

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ
Kasaba uyushma qo‘mitasi raisi
N. Ko‘chkinov
2024-yil



“TASDIQLAYMAN”

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ
Boshqaruv raisi v.b.
T. Zaripov
«16» may 2024-yil



**“DEHQONOBOD KALIY ZAVODI” AKSIYADORLIK JAMIYATINING
KORRUPSIYAVIY XAVF - XATARLARNI BAHOLASH
PROTSEDURASI**

Ishlab chiqdi:

Komplayens xizmati boshlig‘i

O. Meyliyev

Kelishildi:

Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari
Boshqaruv raisining Iqtisod va moliya
bo‘yicha o‘rinbosari
Boshqaruv raisining transport va logistika
bo‘yicha o‘rinbosari v.b

B. Normuratov

U. Isaev

A. Yusupov

A. Umarov

Yuridik bo‘lim boshlig‘i

Hujjat kodi

KQKMT -1

Tahrir raqami

1

Amal qilish muddati


16.05.2024y

dan

16.05.2027y

gacha

Mazkur hujjat “Dehqonobod kaliy zavodi” AJning mulki hisoblanadi va oshkor qilib bo‘lmaydigan xarakterga ega. Hujjatning to‘lig‘icha yoki alohida qismlari nusxalarga ko‘paytirilishi, shuningdek, Komplayens xizmati rahbari ruxsatisiz tashkilot xodimi hisoblanmagan begona shaxslarga berilishi man etiladi. Kiritiladigan o‘zgartirishlar faqat hujjatning asli va ro‘yxatga olingan nusxalaridagina qayd qilinishi lozim.





“KELISHILDI”

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ
Kasaba uyushma qo‘mitasi raisi

_____ **N. Ko‘chkinov**

«_____» _____ **2024-yil**

“TASDIQLAYMAN”

“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ
Boshqaruv raisi v.b.

_____ **T. Zaripov**

«_____» _____ **2024-yil**

“DEHQONOBOD KALIY ZAVODI” AKSIYADORLIK JAMIYATINING
KORRUPSIYAVIY XAVF - XATARLARNI BAHOLASH
PROTSEDURASI

Ishlab chiqdi:

Komplayens xizmati boshlig‘i

_____ **O‘.Meyliyev**

Kelishildi:

Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari

_____ **B.Normuratov**

**Boshqaruv raisining Iqtisod va moliya
bo‘yicha o‘rinbosari**

_____ **U.Isaev**

**Boshqaruv raisining transport va logistika
bo‘yicha o‘rinbosari v.b**

_____ **J.Yusupov**

Yuridik bo‘lim boshlig‘i

_____ **A.Umarov**

Hujjat kodi

KQKMT -1

Tahrir raqami

1

Amal qilish muddati

dan

_____ gacha

Mazkur hujjat “Dehqonobod kaliy zavodi” AJning mulki hisoblanadi va oshkor qilib bo‘lmaydigan xarakterga ega. Hujjatning to‘lig‘icha yoki alohida qismlari nusxalarga ko‘paytirilishi, shuningdek, Komplayens xizmati rahbari ruxsatisiz tashkilot xodimi hisoblanmagan begona shaxslarga berilishi man etiladi. Kiritiladigan o‘zgartirishlar faqat hujjatning asli va ro‘yxatga olingan nusxalaridagina qayd qilinishi lozim.



MUNDARIJA

1. O‘ZGARTISHLARNI QAYD QILISH VARAG‘I.....	3
2. HUJJATNING MAQSADI.....	4
3. TA‘RIFLAR VA QISQARTIRISHLAR.....	4
4. HAVOLA.....	4
5. QO‘LLASH UCHUN JAVOBGARLAR.....	4
6. KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNI DASTLABKI BAHOLASH	5
7. KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNING KEYINGI (HAR YILLIK) BAHOLANISHI	5
8. JAMIYATDA AMALGA OSHIRILADIGAN FUNKSIYALAR VA FAOLIYATNING KORRUPSIYAVIY XAVF-XATAR DARAJASINI BAHOLASH TARTIBI	6
9. KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARNING DARAJASINI MINIMALLASHTIRISH CHORALARI	9
10. YAKUNIY QOIDALAR	9
11. SAQLASH	9
12. PROSEDURA BO‘YICHA YOZUVLAR RO‘YXATI	10
1-Ilova Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi.....	11
2-Ilova Korrupsiya xavf-xatariga eng ko‘p moyil bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati	11
3-Ilova Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlari	11

2. HUJJATNING MAQSADI

Mazkur hujjat ISO 37001:2016 xalqaro standartlarining talablariga muvofiq ishlab chiqilgan va xodimlarga yuklangan vazifa va majburiyatlarni bajarishda yuzaga kelib chiqadigan Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash bo'yicha qoidalarni belgilab beradi hamda tashkilotda Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholashga yagona yondashuvni shakllantiradi.

3. TA'RIFLAR VA QISQARTIRISHLAR

Ta'riflar:

Tashkilot	“Dehqonobod kaliy zavodi” AJ
Hujjat	Identifikatsiya qilish imkoniyatini beruvchi rekvizitlarga ega, moddiy eltuvchida rasmiylashtirilgan ma'lumot.
Xujjatlashtirilgan axborot	Tashkilot tomonidan boshqarish va ishga yaroqli xolatda saqlash talab etiladigan ma'lumot.
Yozuvlar	Bu natijaga erishilganligini tasvirlaydigan yoki faoliyatni amalga oshirilganligini isbotini tasvirlaydigan hujjatlar.
Protsedura	Jarayoni yoki faoliyatni amalga oshirishni o'rnatilgan usuli
Korrupsiyaviy harakatlar	Xodim tomonidan bevosita yoki bilvosita shaxsan yoki uchinchi shaxslar orqali pora beruvchi manfaatlari yo'lida harakat yoki harakatsizlik uchun moddiy manfaatdor bo'lishi, shu jumladan pul, qimmatbaho qog'oz, boshqa ko'rinishdagi mulk va mulkiy huquqlar, mulkiy harakterdagi xizmatlar olish, talab qilish, undirish, taklif qilish yoki berish, pora berish va/yoki olish yoki bunda vositachilik qilishda, rasmiyatchiliklarni soddalashtirish uchun to'lovlar undirish (pora olish) va boshqa noqonuniy maqsadlarda o'z xizmat vazifalaridan noqonuniy foydalanish
Korrupsiyaviy xavf-xatar	Xodimlar yoki uchinchi shaxslar tomonidan tashkilot nomidan va (yoki) ularning manfaatlarini ko'zlab Korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish xavfi;
Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash	Tashkilot tomonidan amalga oshiriladigan funktsiyalarni tahlil qilish, ularning Korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini aniqlash, shuningdek funktsiyalar doirasida amalga oshiriladigan tegishli tartib-tamoillar uchun o'ziga xos va qoldiq Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash faoliyati

Qisqartirishlar:

KQKBT	Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimi
KQKBT RV	Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimi rahbariyat vakili
KQKBTP	Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimi prosedurasi
KQKBTJ	Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimi jarayoni
ISO	Xalqaro standartirish tashkiloti

4. HAVOLA

Mazkur protsedurada havolalar yo'q.

5. QO'LLASH UCHUN JAVOGBARLAR

Mazkur protsedura talablarini boshqarishni Komplayens xizmati rahbari amalga oshiradi va tashkilotning hamma bo'limlari tomonidan tadbiq etilishiga javobgar hisoblanadi.

Bo'lim, bo'linma va sex rahbarlari joylarda mazkur protseduraning talablarini amalga oshirishga javobgar hisoblanadilar.



6. KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNI DASTLABKI BAHOLASH

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni dastlabki baholash faoliyatning korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini dastlabki baholash va tegishli funktsiyalar doirasida jamiyat xodimlari tomonidan amalga oshiriladigan ayrim faoliyatning Korrupsiyaviy xavf-xatar darajasini baholashni o'z ichiga oladi.

Jamiyatda rahbar, rahbar o'rinbosari hamda bo'lim rahbarlari bilan kelishilgan holda Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tashkil etiladi. Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatida tashkilotda uzoq yillik tajribaga ega bo'lgan, o'z madaniyati hamda etiqodi bilan ajralib turgan hamda O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi va qonun qoidalari to'g'risida bilimga ega bo'lgan xodimlardan tashkil topadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini ishlab chiqish bo'yicha jamiyatning tarkibiy bo'linmalariga ko'rsatma yuborilishini ta'minlaydi.

Ko'rsatmada tasdiqlangan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatiga taqdim etish muddatlari ko'rsatilib, bu muddat yigirma besh ish kunidan kam bo'lmasligi kerak.

Jamiyatning tarkibiy bo'linmalarining Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi tegishli bo'linmalar tomonidan ishlab chiqilib, Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatiga taqdim qilinadi. Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tashkilot uchun yagona Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasini tuzadi.

Jamiyat tarkibiy bo'linmalari tomonidan ishlab chiqilgan Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga oid savollar yuzaga kelgan taqdirda, Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati xodimlari tegishli tarkibiy bo'linmaga izoh berish yoki xaritagatuzatish kiritish uchun so'rov yuboradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati xodimlari o'z ekspertlik fikriga tayangan holda Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasiga o'zgartirishlar kiritishlari mumkin.

Jamiyat tarkibiy bo'linmalarining Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalari asosida Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tashkilotning Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini ishlab chiqadi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasi jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati taqdimnomasiga asosan jamiyat rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Korrupsiyaviy xavf-xatarning (Xavf darajasi) yuqori darajasi bilan ifodalanadigan faoliyat uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxatini ishlab chiqadi.

Jamiyatning Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati taqdimnomasiga asosan tashkilot rahbari jamiyat tasdiqlanadi.

Jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi tarkibiy bo'linmalarining Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarini inobatga olgan holda Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan ishlab chiqiladi hamda Jamiyat rahbari tomonidan tasdiqlanadi

7. KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARLARNING KEYINGI (HAR YILLIK) BAHOLANISHI

Jamiyatda Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning keyingi baholanishi doimiy ravishda, bir yilda kamida bir marta, qoida tariqasida yil boshida (fevral oylarida) o'tkaziladi.

Baholashni boshlashdan oldin, oldingi baholash davriga nisbatan qonunchilikda yoki ichki hujjatlardagi o'zgarishlar, Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning minimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilganligi, korrupsiya holatlari bo'yicha murojatlar, ichki tekshiruvlar natijalarini Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tahlil qiladi.

8. JAMIYATDA AMALGA OSHIRILADIGAN FUNKSIYALAR VA FAOLIYATNING KORRUPSIYAVIY XAVF-XATAR DARAJASINI BAHOLASH TARTIBI

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tashqi va ichki axborot manbalaridagi ma'lumotlar tahlili asosida amalga oshiriladi, jumladan:

- jamiyatning funktsiyalarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar va jamiyatning ichki hujjatlari (misol uchun, tarkibiy bo'linmalar, xodimlarning lavozim yo'riqnomalari to'g'risidagi nizomlar va h.k.);
- ichki tekshiruvlar materiallari, shu bilan birga xizmat tekshiruvlari materiallari;
- ichki audit va Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha monitoring natijalari;
- odob-ahloq komissiyasi yig'ilishlari natijalari;
- manfaatdor tomonlar, davlat xizmati oluvchilar, ekspertlar va boshqa manfaatdor shaxslar orasida o'tkazilgan so'rov, jumladan ijtimoiy tadqiqotlar natijalari bo'yicha tashkilotning xodimlari tomonidan sodir etilgan Korrupsiyaviy harakatlarga oid murojaatlar;
- tashkilot faoliyatidagi huquqbuzarliklarga oid statistik ma'lumotlar; Korrupsiyaviy harakatlar to'g'risida xabar berishga mo'ljallangan aloqa;
- kanallariga kelib tushgan jismoniy va yuridik shaxslarning murojatlari; tashkilot xodimlari tomonidan sodir etilgan Korrupsiyaviy harakatlar;
- yoki odob-ahloq qoidalariga rioya qilmaslik to'g'risida OAVdagi ma'lumotlar; ijtimoiy tarmoqlarda qoldirilgan izohlar;
- huquqni muhofaza qiluvchi organlari tomonidan taqdim etilgan materiallar, jumladan jinoyat ishlariga doir axborotlar va boshqalar.

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash jarayonida jamiyatning har bir funktsiyasi va faoliyati bo'yicha Korrupsiyaviy harakatlarni sodir etilishi imkoniyatlar borligi bo'yicha tahlil qilish lozim.

Har bir funktsiya quyidagi shkala bo'yicha baholanadi:

- Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko'p moyil bo'lgan funktsiya;
- Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga o'rtacha moyil bo'lgan funktsiya;
- Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng kam moyil bo'lgan funktsiya.

O'rganilayotgan funktsiya doirasida amalga oshirilayotgan faoliyatlarning o'ziga xos xavf-xatarini baholash quyidagi mezonlarga ko'ra amalga oshiriladi:

1- jadval. Funksiyaning Korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasi

Funksiyaning Korrupsiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasi	Ta'rifi
Eng ko'p moyil (ushbu mezonlardan ikki yoki undan ortiq bo'lsa qo'llaniladi)	jarayonni qonunchilik darajasida Protseduraga solishdagi kamchiliklar (shu jumladan hujjatlarni topshirish/qaror qabul qilish muddatlari, zarur hujjatlar ro'yxati va h.k)
	Jamiyatda va o'xshash turdosh korxonalarda korrupsiya sxemasining tarqalishi, ya'ni bu korrupsiya sxemasidan takroriy foydalanish haqida aniq ma'lumotning mavjudligi
	jarayon uchinchi shaxslar, shu jumladan, jismoniy va/yoki yuridik shaxslar bilan shuningdek, Jamiyatga nisbatan nazorat funktsiyalarini amalga oshiruvchi davlat amaldorlari bilan o'zaro hamkorlikni o'z ichiga oladi
	jarayon Jamiyatning pul/mol-mulki harakatini o'z ichiga oladi
	jarayon doirasida vositachilarni jalb qilish

O'rtacha moyillik (barcha ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq qo'llaniladi)	jarayon qonunchilik talbalari darajasida Protseduraga solinadi, lekin unda kamchiliklar bo'lishi mumkin (hujjatlarni topshirish / qaror qabul qilish muddatlari, zarur hujjatlar ro'yxati va h.k)
	jarayon Jamiyatning pul mablag'lari/mol-mulki harakatini yoki Jamiyatga nisbatan nazorat funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat mansabdor shaxslaridan tashqari uchinchi shaxslar bilan hamkorlikni o'z ichiga oladi
	korrupsiya sxemasi Jamiyatda va o'xshash turdosh korxonalarda keng tarqalgan emas
	jarayonda vositachilarning yo'qligi
Eng kam moyil (barcha ko'rsatilgan mezonlarga muvofiq qo'llaniladi)	uchinchi shaxslar, shu jumladan Jamiyatga bog'liq nazorat funksiyalarini amalga oshiruvchi davlat mansabdor shaxslari bilan o'zaro aloqaning yo'qligi
	Jamiyatning pul mablag'lari/mol-mulki harakatining yo'qligi
	jarayonda vositachilarning yo'qligi
	jarayon qonun hujjatlari darajasida batafsil Protseduraga solingan (hujjatlarni topshirish/qaror qabul qilish muddatlari, zarur hujjatlar ro'yxati va h.k)
	korrupsiya sxemasi Jamiyatda va o'xshash turdosh korxonalarda keng tarqalgan emas

Korrupsiyaviy xavf-xatar (xavf darajasi) darajasini baholash jarayoni, sodir bo'lishi ehtimollik darajasi va ahamiyatlik darajasini hisoblash usuli bilan amalga oshiriladi.

2-jadval. Korrupsiyaviy xavf-xatar ehtimollik darajasini aniqlash mezonlari

Ehtimollik darajasi	Ta'rifi
Yuqori	<ul style="list-style-type: none"> - O'ziga xos xavf-xatar darajasi yuqori - Nazorat tadbirlarining mavjud emasligi sezilarli darajada kam-ko'stini to'ldirish kerak bo'lgan nazorat tadbirlarining mavjudligi - Tartib-tamoilni ichki hujjatlar yordamida aniq tartibga solinishi mavjud emasligi - Tartib-tamoilni avtomatlashtirish mavjud emasligi/darajasi pastligi
O'rta	<ul style="list-style-type: none"> - O'ziga xos xavf-xatar darajasi o'rta - Tartib-tamoil tartibga solingan, kam- ko'stini oz miqdorda to'ldirish kerak bo'lgan nazorat tadbirlari joriy etilga - Tartib-tamoil tartibga solingan, qisman avtomatlashtirilgan, biroq yetarli darajada shaffof emas - O'ziga xos xavf-xatar darajasi yuqori xavf-xatarni kamaytirish uchun yetarli bo'lgan nazorat tadbirlari, jumladan Tashkilotning ichki hujjatlari bilan tartibga solingan, kamida uchta shaxs tomonidan kross-funksional nazorat (davlat organi va tashkiloti hududiy va tarkibiy davlat bo'linmalarining nazorat qilinishi)ni ko'zda tutuvchi nazorat tadbirlarining mavjudligi - Tartib-tamoil qisman yoki to'liq avtomatlashtirilgan
Past	<ul style="list-style-type: none"> - O'ziga xos xavf-xatar darajasi past - O'ziga xos xavf-xatar darajasi o'rta hamda xavf-xatarni kamaytirish uchun yetarli bo'lgan nazorat tadbirlari, jumladan ichki hujjatlar bilan tartibga solingan, kamida uchta shaxs tomonidan kross- funksional nazoratni ko'zda tutuvchi nazorat tadbirlarining mavjudligi - Tartib-tamoil to'liq avtomatlashtirilgan

3-jadval. Korrupsiyaviy xavf-xatarning ahamiyatlilik (oqibat, ta'sirchanlik) darajasini aniqlash mezonlari

Ahamiyatlilik darajasi	Obro'ga putur yetkazish	Javobgarlik	Tartibga soluvchi organlar sanksiyasi
Yuqori	- Xavf-xatar tashkilotning mamlakat va xalqaro miqyosdagi obro'siga sezilarli ravishda putur yetkazadi	Tashkilot xodimlariga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atish uchun tegishli organlarga hujjat yuborish tashabbusi bilan chiqish	- Nazorat organlarining inson va moliyaviy resurslarning inson va moliyaviy xarajatlarni katta hajmda talab qiluvchi ko'rsatmalari - Ahamiyatli jarimalar to'lash - Nazorat organlari qarorlariga muvofiq faoliyatni to'xtatish - Faoliyatning ayrim turlarini amalga oshirishni taqiqlash (shu jumladan lisenziyalarni bekor qilish) - Jamiyat / xodimlarga nisbatan jinoiy tergov harakatini boshlash
O'rta	- OAVda salbiy hodisaning yoritilishi; Aholi va hamkorlardan salbiy fikrlar va shikoyatlar olish; xavf-xatar tashkilot obro'siga mahalliy darajada putur yetkazadi.	Tashkilot xodimlariga nisbatan ma'muriy surishtiruv o'tkazish uchun hujjatlarni Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga yuborish tashabbusi bilan chiqish	- Kichik jarimalar to'lash - Nazorat organlarining inson va moliyaviy resurslarning katta xarajat talab qilmaydigan ko'rsatmalar
Past	- Aholi, mahalliy OAVlardan vaziyatga izoh berishni so'rab alohida so'rovlar tushishi mumkin - Jamiyatning hududlarida bo'lgan xavf-xatar mahalliy darajada Jamiyatning obro'siga ta'sir qiladi	Davlat organi/ idorasi tizimi xodimlariga nisbatan xizmat tekshiruvi o'tkazish tashabbusi bilan chiqish mumkin	- Nazorat organlarining inson va moliyaviy resurslarning katta xarajatlarni talab qilmaydigan kichik mulohazalari/ko'rsatmalari

Korrupsiyaviy xavf-xatar (xavf darajasi) darajasini baholash

Xavf darajasi = ehtimollik koeffisienti x ahamiyatlik koeffisienti

4-jadval. Korrupsiyaviy xavf-xatar (xavf darajasi) darajasini aniqlash

Ahamiyatlik koeffisienti (Ak)	Yuqori	O'rta	Yuqori	Yuqori
	O'rta	Past	O'rta	Yuqori
	Past	Past	Past	O'rta
		Past	O'rta	Yuqori
		Ehtimollik koeffisienti (Ek)		

9. KORRUPSIYAVIY XAVF-XATARNING DARAJASINI MINIMALLASHTIRISH CHORALARI

Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini belgilashda:

- har bir chora tashkilot xodimlari uning maqsadlari, pirovard natijasi va ma'lum bir Korrupsiyaviy xavf-xatarni minimallashtirish bilan aloqasini tushunishi uchun aniq va ravshan ifoda etilishi;

- har bir chora uchun uni amalga oshirish muddati yoki davriyligi belgilanishi, uni amalga oshirish uchun mas'ul shaxslar, amalga oshirilishini monitoring qilish va samaradorligini baholash mexanizmlari aniqlab olinishi zarur.

Aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlari jamiyatning Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati va bo'lim rahbarlari birgalikda ishlab chiqadilar. Jamiyatdagi Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish ustidan nazoratni Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati amalga oshiriladi.

10. YAKUNIY QOIDALAR

Kerak bo'lganda, Jamiyatning korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi va xavf-xatarning darajasini minimallashtirish choralari o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bilan bog'liq masalalar bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tomonidan jamiyat rahbariga takliflar kiritiladi.

11. SAQLASH

Protseduaning Jamiyat rahbari tomonidan tasdiqlangan qog'oz ko'rinishdagi asl nusxasi Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatida saqlanadi.

12. PROSEDURA BO‘YICHA YOZUVLAR RO‘YXATI

№	Yozuv nomi	Yuritish/saqlash ga javobgar	Saqlash		Muomiladan chiqarish tartibi
			Joy	Muddati	
1	Korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi	Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati boshlig'i	Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati	3 yil	Arxiv
2	Korrupsiya xavf-xatariga eng ko'p moyil bo'lgan lavozimlar ro'yxati	Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati boshlig'i	Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati	3 yil	Arxiv
3	Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish chora-tadbirlari	Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati boshlig'i	Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati	3 yil	Arxiv

